

AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI

Andijon Davlat Pedagogika instituti Kimyo yo'nalishi talabalari
**Mahmudjonova Moxlaroy G'anijon qizi, Qodirjonova Shohida Umidjon qiz,
Keldiyeva Shahnoza Shuxratbek qizi**

Anatatsiya. Ushbu maqolada buyuk Movorounnaxr podshohi bo'lgan, jasur sarkarda, buyuk davlat arbobi Amir Temurning hayoti, bolaligi, sarkardalikka kirib kelishi, shoh darajasiga ko'tarilishi, davlatni yuksaltirishi, mamlakatni buyuklikka yetkazishi, qilgan janglari hamda bosib olgan davlatlari borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, shoh, sarkarda, Oltin O'rda, jang, siyosat, g'azna, yurishlar.

Annotation. This article contains information about the life, childhood, rise to the rank of king, raising the state, bringing the country to greatness, battles and conquered states.

Keywords: Amir Temur, King, Commander, Golden Duck, Battle, Politics, Treasury, Marches,

Amir Temur (Eski turkcha: تیمور امیر – Amir Temur) (1336-yil 9-aprel – 1405-yil 18-fevral) – o'rta asrlarning buyuk turkiy askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni yengishi ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyillikning eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shinboshi, o'tmishda ko'rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo'mondonlaridan biri, Temuriylar uyg'onish davri asoschisi, ilm-fan, me'morchilik, san'at va adabiyot homiysi. Temurbekning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Tarag'aybek o'z chog'ining odatlariga ko'ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o'q otishni o'rgatuvchilarni tayin qiladi. Shu yuzdan Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo'rqmas bahodir bo'lib ulg'ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o'qimishsiz bo'lganligi to'g'risida kunbotar ellari o'rtasida yanglish qarash ular chindek o'rtnashib qolgan. Temurbek o'zi to'g'risida kitobida 21 yoshga to'lganida otasining hosili yaxshi bo'lganini, qoramol va yilqilar ko'p bolalaganini, o'zi ularni 10 tadan qilib ishchilariga bo'lib berganini yozadi. Temurbekning yoshlik yillari to'g'risida bilgilar juda oz.

Temurbek o'z ona tilisi chig'atoy (eski turkcha yoki eski adabiy o'zbekcha) cha va forschada so'zlashgan. Temurbek arabcha so'zlasha olmagan va mo'g'ul tilida so'zlasha olganligiga tegisgli bilgilar tortishmali. Uning davrida Turk (Eski o'zbek adabiy tili) cha – so'zlashuv, qo'shin boshqarish, adabiyot va davlat ishlari tili, forsha – huquq, davlat ishlari, adabiyot va so'zlashuv tili, arabcha – din tili bo'lgan. O'rta chog' davlatlariga bo'lganidek Temurbek davlatida ham asosiy huquqiy ishlar – soliqlar yig'ish, g'aznachilik ishlari, moliya ishlari fors tilida olib borilgan. Temurbek o'z yurishlari chog'larida yilyozarlariga kunlik ishlarni Turkcha va forsha tillarda yozib borishlarini buyurgan. Temurbek o'tmishining bilingan 3 ta tamal asaridan 2 tasi, Nizomiddin Shomiy – Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy – Zafarnoma, aynan shu kunlik qo'lyozmalarga asoslanib yozilgan kitoblardir. Rasmiy yozuv turi esa arab alifbosiga asoslangan fors va turk (eski uyg'ur alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi) yozuvlari edi.

Temurbekning siyosatga kirib kelishi. 1358-yil Qazagʻanbekning oʻlimidan soʻng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chogʻida Temurbek amakisi Xoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Moʻgʻuliston) xoni Tugʻluq Temur Movarounnahrda yurish qiladi. Tugʻluq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha boʻlgan yerlar topshiriladi. Tugʻluq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qoʻshin yigʻadilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida toʻqnashishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida toʻqnashishadi. Temurbek dushmani yengadi. 1361-yil martda Tugʻluq Temur yana Movarounnahrda yurish qiladi. Temurbek yana Tugʻluq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrda xon qilib Ilyosxoʻja, Tugʻluq Temurning oʻgʻli, tayinlanadi. Tugʻluq Temur oʻz yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan uchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. Moxonda qamoqda bir necha kun qolgan beklar Muhammadbek, Alibekning akasi, tomonidan ozod qilinadi. Temurbek Seyiston tomon yuradi. Temurbek va Husaynbek Seyiston hokimi soʻrovi va bergan soʻzlariga koʻra uning yovlariga qarshi urushishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Seyiston hokimi soʻzini ustidan chiqmaydi. Temurbek Seyistondan qaytishida Sagziylar Mekrondan kelib Temurbek va yoʻldoshlariga tashlanishadi. Sagziylar qoʻshini chekinadi. Temurbekning oʻng qoʻli va oʻng oyogʻi yaralanadi. Temurbek Garmsirga keladi va tuzaladi. Keyin Balxga qarab boradi va Abdulloh arigʻi oldida, Abu Said, Mangli Buʻga, Haydarlarga qarshi urushadi. Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Dashti Koʻlankaga keladi. Toshkoʻprik yaqinida Temurbek Yumkon oʻgʻli Temur, Sariq, Shingum va Tugʻluq Xoʻjaga qarshi urushadi. Temurbek dushmani yengadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubba-i metinda Ilyosxoʻja bilan toʻqnashishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Temurbek Qobulshoh Oʻgʻlonni Movarounnahrda xon qilib koʻtaradi. Ilyosxoʻja yana Movarounnahrda yurish qiladi. 1365-yil 22-mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi boʻyida Loy jangi boʻlib oʻtadi. Temurbek boʻlinmasi qarshi tomon boʻlinmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur boʻladi. 1366-yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmani yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otligʻini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yagʻmo etib qaytadi. Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qoʻlga olib Suyurgʻotmish Oʻgʻlonni xon qilib koʻtaradi. 1370-yil Temuriylar davlati quriladi. Amir Temurning hokimiyat boshqaruvi chogʻi

Temurbek Amir unvonini oladi va Samarqandni boshshahar etib belgilaydi. 1370-yil kuzida yirik Qurultoy oʻtkazadi. 1371-yil Amir Temur Jeta tomon 2 marta yurish qiladi. Hevak oʻlkasi va Kot shahri aslan Chigʻatoy ulusining yerlari boʻlsada, biroq u yerlar soliqlarini Xorazmdagi Soʻfiylar yigʻar edi. 1372-yil bahorda bu yerlarni qaytarishni koʻzlab Temurbek Xorazm tomon ilk yurishini qiladi. Temurbek Qot qalʼasini qamal qiladi va qalʼani egallaydi. Temurbek Qovun arigʻiining oldida Husayn Soʻfiy bilan urushib dushmani yengadi. Husayn

Soʻfiy yengilishdan soʻng Xorazmga qarab chekinadi va oʻsha yerda oʻladi. Temurbek Yusuf Soʻfiy bilan yarashadi va ortiga qaytadi. Qaytish ortidan Yusuf Soʻfiy Kotni talaydi. Temurbek 2-marta Xorazm tomon yuradi. Temurbek qudachilik qilish uchun bu gal Xorazmni urmaydi. 1375-yil yanvarda Temurbek Jeta tomon 3-marta yurish qiladi. Ili daryosi boʻyida urushda Temurbek dushmani yengadi. 1376-yil Temurbek Xorazm tomon 3-yurishini qiladi. Biroq bu yurish chogʻida Sari Bugʻa va Odilshoh yovlik yoʻliga oʻtgani uchun ortiga qaytadi. Keyi 4-marta Jeta yurish qiladi. Temurbek qoʻshini Jeta xoni Qamariddinni toʻla yengadi. Shu yili toʻngʻich oʻgʻli Jahongir Temuroʻgʻli oʻladi. Temurbek 5-marta Jeta tomon yuradi va Toʻqtamish oʻgʻlon bilan uchrashadi. Toʻqtamishga Sigʻnoq va Sabron oʻlkalarini beradi. 1376-yilning oʻzida Temurbek Oʻrisxon tomon qoʻshin tortadi. Jayron Qamishda yogʻiy qoʻshinini yengadi. 1377-yilda Samarqandga qaytadi. Temurbek qaytishi ortidan Toʻqtamish hokimiyati yiqiladi. Temurbek Toʻqtamishni yana qoʻllaydi va qurol-yaroq bilan taʻminlaydi. 1379-yil Temurbek Xorazm tomon 4-marta yurish qiladi. Xorazm qalʼa qamalida Yusuf Soʻfiy Temurbek bilan birga-bir urushishni soʻraydi. Temurbek soʻrovni sharaf bilib yolgʻiz oʻzi qalʼa ostiga boradi. Biroq Yusuf Soʻfiy tashqariga chiqmaydi. Temurbek qalʼani egallaydi. 1381-yilda Temurbek Eron oʻlkasi tomon qoʻshin tortadi. Oq Oʻrda bilan jang

Temurning Oltin Oʻrdaga qarshi 1391-yildagi yurishi Temurning Oltin Oʻrdaga qarshi 1395-yildagi yurishi.

Amir Temur Movarounnahrni moʻgʻullar hukmronligidan ozod etib, bu qad. mamlakatda mustaqil davlat barpo etgan boʻlsada, hali mamlakatda barqaror tinchlik oʻrnatilgan emas edi. Bir tomondan ayrim viloyat hokimlari Amir Temur hakimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan boʻlsalar, ikkinchi tomondan mamlakatning sharqiy va shim. hududlari notinch edi. Moʻgʻuliston bilan Oq Oʻrda hukmdorlari Fargʻona vodiysining sharqi, Oʻror, Yassi (Turkiston) va Sayram sh.lariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talontoroj qilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini taʻminlashga katta ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. 1370-yil kuzi va 1371-yil bahorida amir Zinda Chashmga zarba berib, Shibirgʻon viloyati boʻisundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Ammo Xorazm Oq Oʻrda hukmdorlariga suyanib, hanuz boʻysunishdan bosh tortib kelardi. Xorazmni Amir Temur Chigʻatoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblab, uni oʻz davlatiga koʻshib olish siyosatini tutdi. Ammo bu masala elchilar vositasida tinch yoʻl bilan hal etilmagach, Amir Temur Xorazm hududiga besh marotaba yurish qildi. Birinchi yurishi 1371-yil yoz (iyul)ida Kot shahrini egallash bilan yakunlandi. Amir Temurning 1373-yil bahori va 1375-yil yozida Xorazm tomonga qilgan ikki yurishi natijasiz tugadi. Bu asnoda Oltin Oʻrda xoni Toʻxtamish bilan ittifoq tuzib olgan Xorazm hukmdori Yusuf soʻfi, uning yordamida Amir Temur davlati hududlariga bir necha bor yurish qilib, Qorakoʻl viloyati va Buxoro tumanlarini talon-toroj etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379-yilda Amir Temurni toʻrtinchi marotaba Xorazmga qoʻshin tortishga majbur etdi. Lekin, bu yurish ham avvalgilari kabi sulh tuzish bilan tugadi. Biroq shunga qaramay, Yusuf soʻfi ilgari Xorazmning Chigʻatoy ulusiga tegishli boʻlgan jan. sharqiy (Kot va Xiva sh.lari birga) qismini yana qaytadan bosib oldi. Amir Temur davlatiga nisbatan Yusuf soʻfining tutgan bunday tajovuzkorona siyosati Xorazm ustiga Amir Temurning beshinchi marta yurish qilishiga sabab boʻldi. 1388-yilda Xorazmning poytaxti vayron etilib, uning hududlari Amir Temur davlatiga boʻysundirildi.

Amir Temur buyuk shoh va sarkarda, yoshlik chogʻidan jang sanatini puxta oʻrgangan buyuk shohdir. U butun bir Movorounnaxrni gullab yashnatgan. Uning davlati va qudrati oʻsha

davr uchun cheksiz bo'lgan. Xalqini farovonligi va tinchligini muhim deb hisoblagan va buning uchun jang-u jadallar qilgan. Ko'plab davlatlar ustidan g'alaba qozonib ularni o'zini tasarrufiga olgan. Kuchli siyosatshunos bo'lgan. Uning "Temur Tuzuklari" asari butun bir siyosatni, davlatni boshqarishni asosiy qoidalarini mujassamlashtirgan. Biz shunday buyuk ajdodimiz borligidan faxrlanaiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

4. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. – Т.Фан, 1994. – 238 б.
1. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. – Т. Шарк, 2000.
2. Бердимуродов А. Гўри Амир мақбараси – Т, 1996.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). Профессор Очил Тоғаев таржимаси. – Т. О'ZBEKISTON НМЖ, 2010.
4. Meri. *Medieval Islamic Civilization*. Routledge, 2005 — 812-bet. ISBN 978-0415966900.
5. *Muntaxab-al Lubab*, Xafi Xon Nizom-ul-Mulkiy, Vol I, p. 49. Printed in Lahore, 1985

